O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI HOKIMINING
QARORI

200118. Buxoro viloyati, Buxoro shahri, I.Mo’minov ko’chasi 1-uy. Tel.:(365) 224-34-85, Faks: 223-05-95 e-mail: info@buxoro.uz, buxoro@exat.uz

2024 - yil 5 - mart 113-2-0-Q/24 Buxoro viloyati hokimligi

“G‘ijduvon” EIZ hududidagi elektron onlayn-auksionga chiqariladigan yer uchastkasining boshlang‘ich narxi va har yilgi ijara to‘lovi miqdorini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-dekabrdagi PF-5600-sonli “Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini muvofiqlashtirish va boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga muvofiq hamda investitsiyalarni jalb qilish uchun shart-sharoitlarni yaxshilash, investitsiya loyihalarini jadal amalga oshirishni ta’minlash, shu asosda yangi ish o‘rinlarini yaratish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. “G‘ijduvon” EIZ hududidagi elektron onlayn-auksionga chiqariladigan yer uchastkasining boshlang‘ich narxi 0,01 gektariga (1 sotix) Kogon shahri hamda Kogon, Buxoro va G‘ijduvon tumanlari hududlarida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari, Qorovulbozor, Romitan va Peshku tumanlarida bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari etib belgilansin.

2. “G‘ijduvon” EIZ hududidagi elektron onlayn-auksionga chiqariladigan yer uchastkasining har yilgi ijara to‘lovi miqdori Xalq deputatlari Kogon shahri va tumanlar Kengashlari tomonidan tasdiqlangan “Yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer solig‘i stavkasi” miqdorida belgilansin.

3. Viloyat investitsiyalar, sanoat va savdo boshqarmasi (O.Sadikov), “G‘ijduvon” EIZ direksiyasi (O.Qazoqov), Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmasi

(Sh.Ramazonov) viloyat teleradiokompaniyasi (O.Shabanov), “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalari tahririyati (Sh.Sulaymonov) bilan birgalikda mazkur qarorning mazmun-mohiyatini ommaviy axborot vositalari orqali tadbirkorlik subyektlari va aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilsin.

4. Mazkur qaror “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida e’lon qilinsin hamda hokimlikning buxoro.uz rasmiy veb-saytida joylashtirilsin.

5. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kirishi belgilansin.

6. Mazkur qaror ijrosining nazorati viloyat hokimining o‘rinbosari - investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig‘i R.Asadov zimmasiga yuklatilsin.

Buxoro viloyati hokimi **B.K.Zaripov**